

**RUHIY TUTQUNLIKDAN QUTULISHNING IKKI ASR
KO'RINISHLARI: CHO'L PON VA NORMUROD NORQOBIL ASARI
TALQINIDA.**

Marjona Ravshanova

Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi.

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.01.2026

Revised: 21.01.2026

Accepted: 22.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Jadid adabiyoti,
Cho'lpon, Normurod
Norqobil, "Kecha va
kunduz", "Qora
quyun", Ozod inson,
Ruhiy qullik, Ma'rifat,
Qasos, Qiyosiy tahlil.*

Ushbu maqola o'zbek adabiyotining ikki yirik asari — Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va Normurod Norqobilning "Qora quyun" qissasidagi ozod inson idealini qiyosiy tahlil qiladi. Maqola jadidlar tushidagi ma'rifatli insonning ruhiy qullikdan qutulish kurashi zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy tubanlikka qarshi kurash shakliga qanday aylanganini yoritadi. Tahlilning markazida "Kecha va kunduz"dagi Zebo obrazi va "Qora quyun"dagi bosh qahramon (tog'lik yigit) Erman turadi.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston o'z tarixini qayta anglash va milliy o'zlikni tiklash jarayonida turar ekan, Jadidchilik harakatining ma'naviy merosi, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Jadidlar — bu yurtimizning eng og'ir damlarida ilm-ma'rifat bayrog'ini baland ko'targan, milliy g'urur va erk masalasini hayot-mamot deb bilgan haqiqiy fidoyilardir. Ularning ozod inson haqidagi orzulari bugungi taraqqiyotimiz uchun ham mustahkam ma'naviy poydevordir." Aynan shu ozod inson tushunchasi jadid adabiyotining barcha yo'nalishlariga markaziy g'oya bo'lib singgan. Jadidlar uchun erk (erkinlik) shunchaki siyosiy tushuncha emas, balki ruhiy yetuklik, ma'rifat va axloqiy poklik orqali erishiladigan eng oliy qadriyat edi.

Jadid adabiyotining yorqin vakili, buyuk ma'rifatparvar Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li) o'z asarlari orqali ushbu erk tushunchasini eng dramatik va psixologik tarzda tahlil qilgan. Cho'lpon qahramonlarining asosiy dramasi — ruhiy qullikdan qutulish va ma'naviy erkinlikka intilish edi. Xususan, Cho'lponning shoh asari "Kecha va kunduz"dagi Zebo obrazi eski tuzum, patriarxat qonunlar va maishiy zulmat qurboniga aylanadi. Uning kurashi tashqi dushmanlarga qarshi emas, balki avvalo qalbidagi qo'rquv

va ongidagi zulmatga qarshi qaratilgan. Zebi orqali jadid adabiyoti idealidagi ozod inson ma'rifat orqali ruhiy tutqunlikdan qutulish mumkinligiga ishonadi.

Biroq, bu idealning bugungi jamiyatimizdagi talqini qanday? Agar Cho'lpon davrida qullikning qora quyuni ijtimoiy tuzum va jaholat bo'lsa, zamonaviy o'zbek nasrida, xususan, Normurod Norqobilning "Qora qayun" qissasida bu qora qayun shakli o'zgargan. Norqobil qahramoni bo'lmish Ermanning adolatsizlikka, ma'naviy tubanlik va yengil-yelpi hayotga qarshi kurashi o'sha jadidlar orzu qilgan erkning zamonaviy, keskin va ko'pincha qasos orqali namoyon bo'luvchi ko'rinishidir. Uning ruhiy azobi va adolat izlashi bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan ma'naviy qullik va vijdon azobi muammolarini aks ettiradi.

Asosiy qism.

"Kecha va kunduz "romanida Zebi oddiy va soddagina, faqat ilm olishni, erkinlikni xohlovchi obraz sifatida tasvirlanadi. Asarning boshidayoq Zebiga "Qish ichi siqilib, yuragi zanglab chiqqan, ko'ngli bahorning iliq hovuri ila ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqayerlarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi."- deya ta'rif beriladi. Zebi otasi uyida tutqunlardek yashar, ko'ngli tusagan kichik erkalik yoki sho'xliklar qila olmas, bir gal yaqin dugonasi bilan uyda xursandchilik qilayotganlarida otasidan bu ishlari uchun dakki yegan va bundan ba'zida yuragi ezilar, uyidan chiqib olisroq joylarga borgisi, hirgoyi qilgisi kelar edi. U bunday holatda yashashni istamas boshqa tengdoshlari singari erkin bo'lgisi, yayrab, hayotdan zavq olgisi kelardi. Shu sabab o'rtog'i Saltanat Zebini o'zining qishlog'iga olib ketmoqchi bo'ldi va bunga Zebining otasi, hech narsani xushlamaydigan, faqat Eshon bobosini gapini gap deb biladigan, ayoli yoki qizini uydan tashqariga chiqishini istamaydigan Razzoq so'fini zo'rg'a ko'ndirishdi. Zebi bu ishdan juda quvondi, yo'lda u quvonchidan qizlar bilan hangomalashib borardi, ammo bu safar unga hali qancha ko'rguliklar olib kelishini bilmasdi. Mana shu sayohat tufayli Zebi o'zi uchun eng og'ir musibatlardan birini qarshi oldi. Zebining ovozi-yu husnining ta'riflari Akbarali mishboshiga yetib bordi va Zebi qari mingboshiga bir qancha in'omlar evaziga otasi tomonidan to'rtinchi xotin sifatida tortiq qilib yuborildi. Ko'rib turganimizdek, Cho'lpon bu bilan o'sha davr muhitini, otaning ilmsizligini, ko'ra bila turib qizini chohga tashlaganini, erkinlik istab uyidan zo'rg'a chiqa olgan yosh qizning yana tutqunlikka tushib qolishi va endi bu botqoqdan chiqa olmay, aksincha, yanayam sho'ng'ib borishi, ruhiy iztiroblar ichida qolib bir o'yi hammasidan qochib qutulishni o'ylagan, ammo atrofidagi badgir kimsalar bunga yo'l bermaganligi va oxir oqibat qizning erksizlikka yuz tutishini tasvirlaydi.

Normurod Norqobilning "Qoraqayun" romani yuzasidan tahlil qilar ekanmiz yozuvchi go'yo jadidlarning asosiy shiorlaridan bo'lgan "Erk, ozodlik" masalarini yana qayta jonlantirishga harakat qilganini guvohi bo'lamiz. Asarda ushbu masalalar Erman va uning Qoraqayun laqabli iti misolida yoritib beriladi.

O'z qavmida tinchgina, tabiatdan bahramand bo'lib, oilasi bag'rida yashab yurgan Erman Itolmas qavmi tomonidan qo'lga olinadi va qullikka hukm qilinadi. Erman qullikka tushgandagina ozodlikni qadriga yetadi, qancha qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi va bora-bora bu iztiroblar uning dilida Itolmasga nisbatan g'azab, qahr va nihoyat, qasosning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Erman qullikka tushgan onidan boshlab qutulish rejalarini o'ylay boshlaydi, ammo unga ikki narsa: qullar tashlanadigan, dim, sovuq va qorong'u chohdan qanday qilib sezdirmay chiqish va chohdan chiqib olgan taqdirda maxsus g'ulda saqlab boqiladigan, to'g'rirog'i egasidan boshqani tanimay, burdalab tashlaydigan mahluqlardan, itlardan, qochib qutulish yo'llarini topa olmayotgani halal berardi. Ammo Itolmas qavmida birgina qullikni qoralaydigan, odam bolasini bu darajaga solinishiga qarab tura olmaydigan inson bor edi. Bu Oybekach-Itolmasning ikkinchi ayoli edi.

U erining qilayotgan ishlari, oltin topish va uni qazib olish talvasasida insonlarni erkidan mahrum qilayotganini yoqlamas edi va shu sababdan bir kuni tunda o'zida kuch topib qullarni ozod qiladi. Erman ozodlikka chiqqan kuni Itolmasdan qasos olishi, uni xuddi o'ziniki kabi itga yem qilishga ont ichgan edi. Ammo Oybekach ularni ozod qilayotganda bu ovulni unutishlari va qaytib kelmasliklari haqida qasam ichishlarini so'ragan va har birining so'zini olgan edi.

Erman ozod bo'lib ming mashaqqat ila Itolmasning oq tulporini o'girlab o'z qavmiga yetib kelgan edi. Ammo qavm uni yaxshi kutib olmadi va unga qullikdan ko'ra o'lim er kishi uchun afzalligini aytib, uning qiynalgan ruhini battar ezishdi. Bu esa uning qalbidagi qasos o'tini alangalatdi. Erman uni shu ahvolga solgan dushmanini kuta boshladi va dushmanga atab g'ulda it tarbiyalashni boshladi. U g'ulda itni qanday tarbiyalab mahluqqa aytlantirish sirini qullik payti eshitib o'rgangan edi. Uning qalbidagi qasos ko'zlarini shunchalik ko'r qilgandiki, o'zi qullikni his qilganidan, ma'lum muddat erkidan ayrilganidan qanchalik iztirobga tushgan bo'lsa-da qafasdagi jonivorning holiga ahamiyat bermas va uni bandi etganini anglamas edi. Erman qasos pallasini uzoq kutdi va bu orada g'ul it dushman uchun "jonli o'q"ga aylandi. Ammo, qasos oni kelganda Qoraquyun nomli "jonli o'q"ga o'zi nishon bo'ldi.

Yozuvchi bu asarda ozodlikni qanchalik ulug' ne'mat ekanligi qullikni boshidan kechirgan Erman obrazi misolida ifoda etadi, ammo, yana bir jabha e'tiborimizni tortadiki, Itolmas yoki ularni boshqarib turgan Qoraqul ismli kimsa chohdagi tutqunlarning ruhiyatini anglab yetmaganidek, Erman ham jonivorning ozodlikka talpinayotgani, shamolda yelib, qirlarda bandilikdan holi bo'lib yurishni xohlayotganini sezmasdi. Bu esa bizga erk va ozodlik butun borliq uchun birdek azizligini uqtiradi. Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, Qoraquyun Ermanning ichidagi qasos va alam mahsuli ekanligiga, u ichgan ontini bajarib ruhini erkin qilishga urinib, oxir-oqibat o'zi shu a'lam va qasosining qurboni bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa.

Ikkala asar talqinida biz, jadidlarimiz ilgari surgan g'oyalar har doim insonlarni erkka,ozodlikka undab bu yo'lda jaholat yoki qasos bilan emas ,aksincha, ilm va ma'rifat singari qurollar bilan yurishimiz kerakligi, shundagina istagan niyatimizga yetisha olishimiz mumkinligi, aks holda o'sha qurollarga o'zimiz nishon bo'lishimiz muqarrarligini guvohi bolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Cho'lpon. "Kecha va kunduz" romani. Toshkent , Yangi nashr. 2019.
2. N. Norqobilov. "Qoraqayun" romani. Toshkent, Pharos ambition. 2023.
3. D. Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent, Akademnashr. 2018.
4. T. Boboyev. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent, O'zbekiston nash. 2002.
5. A. Ulug'ov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi". Toshkent. G'afur G'ulom nash. 2018.
6. A.Cho'lpon. "Adabiyot nadir?" maqolasi. 1914.